SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/4 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)

**Сайт:** https://scienceproblems.uz

**DOI:** 10.47390/SP1342V3SI4Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

## *№ S/4 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Аббасов Беҳзод Бахтиёрович*
1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ БОШЛАНИШИ ........ 10-21

*Бабаджанов Хасан Бахтиёрович*
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ ........ 22-27

*Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*
ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ........ 28-36

*Rasulov Ma'murjon Foziljonovich*
OʻZBEKISTONDA XALQARO SAYYOHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINING OʻRNI ........ 37-42

*Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна*
А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ ........ 43-51

*Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
FARGʻONA VODIYSI QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN ........ 52-58

*Фарманова Гульнара Комилевна*
ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА АФРАСИАБЕ ........ 59-65

*Turaev Sherzod Gulboy ugli*
DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH ........ 66-71

*Сотиболдиев Ғайратжон Отамирзаевич*
ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР ........ 72-78

*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ ........ 79-90

*Абдуллажанова Нигорахон Турдалиевна*
БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН ........ 91-95

*Дониёров Носиржон Абдухолиқ ўғли*
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН ........ 96-102

## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқулова*
ИСЛОМИЙ СУҒУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 103-109

*Фозилов Умид Закирович*
БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ ........ 110-118

*Shoyev Davronbek Axmadjonovich*
BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O‘RNI ........ 119-125

*Орзуқулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи*
ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ ........ 126-133

*Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur*
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI ........ 134-139

*Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li*
YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 140-146

*Ёдгорова Шахноза Хайридиновна*
ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ ........ 147-155

*Qurbonov Ma’murjon G‘ayrat o‘g‘li*
ASOSIY ISHLAB CHIQARISH KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI ........ 156-166

*Nurullayev Hoshimjon Hamidovich*
BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O‘ZBEKISTON TURIZMI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI ........ 167-172

*Маматов Бахадир Сафаралиевич*
РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛАНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ ........ 173-188

*Ғойипназаров Санжар Баходирович*
ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҚАМЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 189-195

*Садинов Азиз Зиядуллайевич*
ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 196-203

*Қурбонова Рахима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Хакимов Дамир*
ИЖТИМОИЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ ........ 204-216

*Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o‘g‘li*
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSIYALARNI YO‘NALTIRISH ZARURIYATI ........ 217-222

*Исломов Алишер Бахтиёр ўғли*
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ........................................................................................................................ 223-229

*Agzamova Nargiza Gapurovna*
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN ..... 230-237

*Муродова Дилноза Чориевна*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ ................................................................ 238-245

*Khodjaeva Shodiyabonu Abitdjanovna*
QISHLOQ XOʻJALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING FUNKSIYALARI .................................................................................................................. 246-250

## ***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна*
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ ........................................................................................................................................ 251-259

*Ibroximov Sarvar Moʻydinjon oʻgʻli*
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OʻQITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .................................................................................................... 260-265

*Yuldashev Ibroxim Toʻychiyevich*
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN'ATINING ADABIYOT BILAN OʻZARO UYGʻUNLIGI VA GʻOYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING MUSHTARAKLIGI ....................................................................................................................... 266-271

*Khamdamova Sitora Safarovna*
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING OʻZIGA XOSLIGI ............................................................................................................................... 272-277

*Абдуллаев Джасур Абдиваит ўғли*
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА ................................................................................................................................ 278-283

## ***10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***

*Xasanov Akbarjon Abdurashidovich*
OʻZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK BIRLIKLAR BOʻYICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR ............................................ 284-292

*Qurbonova Muharram Jurabekovna*
XURSHID DAVRON SHE'RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI ..................................................... 293-297

*Сафарова Замира Рустамовна*
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК ТАСНИФИ ........................................................................................................................................ 298-304

*Gubaydullin Artur Faridovich*
THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS' .... 305-313

*Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi*
ETEL LILIAN VOYNICHNING “SO‘NA” ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ... 314-318

*Seytnazarova Injayim Erjanovna*
TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDALMALARNING USLUBIY QO‘LLANILISHI ... 319-325

*Асадова Дилбархон*
ЎРХОН ПАМУҚНИНГ “ҚОРА КИТОБ” РОМАНИДА “ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ” МОТИВИ ..... 326-342

*Khusanov Eldor Davlat o‘g‘li*
BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALARINING O’XSHASH VA FARQLI JIHATLARI ... 343-348

## *12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР*

*Утемуратов Махмут Ажимуратович*
ЖАМИЯТДА ҲУҚУҚИЙ ОНГ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ... 349-355

*Шымбергенова Улзада*
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ... 356-362

*Полвонов Нажмиддин Аслиддинович*
ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ ... 363-372

*Мирзаев Шухрат Шавкатович*
КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ ... 373-382

*Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли*
“ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ” ... 383-392

*Махмудов Суннат Азим ўғли*
ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ... 393-399

## *13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*

*Farrux Axmedov*
XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH ... 400-409

*Музафарова Саодат Хайдаровна*
ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ ... 410-415

*Xaydarova Iroda Nizomiddinovna*
BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ... 416-421

*Шукурова Нафиса Алишеровна*
ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ ........ 422-427

*Nigmanov Bori Botirovich*
FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI ........ 428-433

*Муродова Дурдона Раимжон қизи*
БЎЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ ........ 434-438

*Axmedov Alisher Nosir o'g'li*
ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI ........ 439-447

*Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI ........ 448-452

*Mansurbekova Feruza Gayratovna*
BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 453-456

*Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna*
O'QITUVCHI  MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI ........ 457-465

*Atamuratova Munira*
O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL METODLAR TAVSIFI ........ 466-471

*Нурилло Эминов*
ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА БИР НАЗАР ........ 472-476

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/4 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*08.00.00- Иқтисодиёт фанлари*

**Raxmatullayeva Feruza Azimovna**
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
Iqtisod va qurilish fakulteti "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" kafedrasi asissenti

**Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o'g'li**
Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 2-bosqich talabasi

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda mamlakatimizda YAIMni oshirish va mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini taminlash maqsadida jadal chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, hududlar iqtisodiyoti asosiy tarmoqlarida jadal o'sish suratlariga erishish Yalpi hududiy mahsulot o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi va bu esa YAIM o'sishiga turtki bo'ladi. Ushbu maqolada Andijon viloyati mintaqasida yalpi hududiy mahsulot samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy fikrlar ilgari surilgan va xulosalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ma'muriy hudud, yalpi ichki mahsulot (YAIM), yalpi hududiy maxsulot (YAHM), iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy ko'rsatkichlar, iste'mol tovarlar, sanoat, qishloq xo'jaligi.

**Рахматуллаева Феруза Азимовна**
Андижанский институт экономики и строительства
Ассистент кафедры «Социально-экономических наук»
факультета экономики и строительства

**Шаробиддинов Ахрорбек Касимжон угли**
Студент 2 ступени бухгалтерского учета и аудита

## ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ВАЛОВОЙ ПРОДУКТИВНОСТИ ТЕРРИТОРИИ

**Аннотация.** В настоящее время в нашей стране осуществляются интенсивные меры с целью увеличения ВВП и обеспечения экономической стабильности нашей страны. В связи с этим углубление экономических реформ, достижение опережающего роста в основных отраслях экономики региона послужит основным фактором роста валового регионального продукта, а это будет стимулировать рост ВВП. В данной статье выдвинуты научные идеи, направленные на повышение эффективности валового регионального продукта в регионе Андижанской области и сформулированы выводы.

**Ключевые слова:** административный район, валовой внутренний продукт (ВВП), валовой региональный продукт (ВРП), экономическая деятельность, экономические показатели, товары народного потребления, промышленность, сельское хозяйство.

**Rakhmatullayeva Feruza Azimovna**
Andijan Institute of Economics and Construction
Assistant of the Department of "Socio-Economic Sciences" of the
Faculty of Economics and Construction

**Sharobiddinov Ahrorbek Kasimjon ugli**
Student of the 2nd stage of accounting and auditing

# WAYS TO INCREASE GROSS TERRITORIAL PRODUCTIVITY

**Abstract.** Currently, intensive measures are being implemented in our country in order to increase the GDP and ensure the economic stability of our country. In this regard, deepening economic reforms, achieving rapid growth in the main sectors of the region's economy will serve as the main factor in the growth of the Gross Regional Product, and this will stimulate the growth of GDP. In this article, scientific ideas aimed at increasing the efficiency of the gross regional product in the region of Andijan region are put forward and the conclusions are stated.
**Key words:** Administrative region, gross domestic product (GDP), gross regional product (GRP), economic activity, economic indicators, consumer goods, industry, agriculture.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N18

**Kirish.** Respublikamizdagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bugungi kundagi ustuvor vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Bu borada, albatta, muhim chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonining [1] 1-ilovasida III “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish sur’atlarini ta’minlash” bandining 21- maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori oʻsish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga YaIMni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholijon boshiga toʻgʻri keluvchi daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish belgilangan [2].

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) odatda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining bazis indikatori boʻlib, u ma’lum bir vaqt oraligʻida hududdagi iqtisodiy proporsiyalarni va ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning miqdoriy natijalarini ifodalaydi. Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) ning afzalliklaridan biri shundaki, u nafaqat ma'lum bir mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotini baholash, balki mamlakat ichidagi barcha hududlar oʻrtasidagi rivojlanish dinamikasini taqqoslash va ularni milliy koʻrsatkichlar bilan taqqoslash imkonini beradi. YAHM hududdagi korxona va tashkilotlar faoliyatining pirovard natijalarini qiymat koʻrinishida ifodalaydi. Mamlakatning iqtisodiy faoliyati natijalarini xarakterlashda yalpi ichki mahsulot (YAIM) koʻrsatkichidan foydalaniladi. Ma’lumki, YAHM va YAIM bir-biri bilan miqdoriy jihatdan mos tushmaydi. YAHM mamlakatning ma’muriy hududida ya’ni, viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpogʻiston Respublikasi faoliyati natijalarini ifodalaydi. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti yalpi hududiy mahsulotlar yigʻindisidan koʻp. Chunki, YAIM YAHMlar bilan birga mamlakatga tegishli boʻlgan, hududlarga tarqatilmaydigan tarmoqlarda vujudga keladigan qoʻshilgan qiymatni oʻz ichiga oladi (Oʻzbekiston havo yoʻllari, Oʻzbekiston temir yoʻllari, davlat boshqaruvi, mudofaa va boshqalar).

Mintaqalarga birlashgan respublikamizdagi har bir hududning salohiyatidan yetarli darajada foydalanish lozim. Xususan, Andijon viloyati mintaqasida iqtisodiy salohiyat sohaning rivojlanishi bilan bogʻliq. Chunki, Andijon viloyati iqtisodiyotining rivojlanishi respublikamiz iqtisodiyoti va uning tovar va xizmatlar bozori sektorida muhim oʻrinni egallaydi. Viloyatning muhim iqtisodiy koʻrsatkichlari qatoriga YaHM, sanoat, iste’mol tovarlari, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi, investitsiyalar, qurilish ishlari, chakana tovar aylanishi, xizmatlar, eksport

va import kabilar kiradi. Koʻrsatkichlar mutloq va nisbiy oʻzgarishlar asosida tahlil qilinib, bozorning rivojlanish omillari aniqlanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** T.Burmenko ta'kidlashicha, hozirgi kunda agarda xizmatlar sohasida YaMMning 65,0 foizdan kam qismi yaratiladigan boʻlsa, bunday mamlakatlar rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritilmaydi [3]. YaHMning asosiy tarkibi bozor samaradorligining elementi boʻlgan xizmatlar hajmiga bogʻliq.

Ba'zi manbalarda keltirilishicha, hudud uchun YaHMni tuzish uchun mintaqa aholisi toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni toʻplash kerak [4]. YaHM mintaqaning barcha iqtisodiy koʻrsatkichlari samaradorligiga bogʻliqdir.

Hudud iqtisodiyotini samarali boshqarishsiz hududni muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish mumkin emas. Oʻz navbatida, mintaqa iqtisodiyotini boshqarish samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy matematik modellashtirish va uning rivojlanishini prognozlashdan foydalanish muhim ahamiyatga ega boʻlib, iqtisodiy boshqaruvning optimal strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beruvchi xarajatlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ushbu maqsadga erishish yoʻlida N.S.Sadovin, T.N.Kokotkina, T.G.Barkalova and Evgeny I.Tsaregorodseva fikricha, YaHMni shakllantirishni matematik modellarini yaratish maqsadga muvofiqdir [5]. Natijada, YaHM orqali turli hisob-kitoblar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoni yaratiladi.

V.Klyunya, S.Balyukning fikricha, jahon nazariyasi va amaliyotida YaHM – bu ma'lum bir hududning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yalpi qoʻshilgan qiymat yigʻindisi boʻlib, u mamlakat YaIM yoki yalpi milliy mahsulot (YaMM)ga oʻx_shash, makroiqtisodiy darajada qaysi koʻrsatkich hisoblanishiga bogʻliq [6]. Iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish orqali bozor samaradorligini ta'minlash mumkin

V.Bochkoning fikricha, YaHM mintaqaning iqtisodiy faoliyati, uning koʻrsatkichlarining umumiy koʻrsatkichi boʻlib, ushbu hududda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning yangi yaratilgan qiymatini tavsiflaydi [7]. Mahsulot va xizmatlar bozor samaradorligining muhim elementi boʻlib, uning samaradorligini oshirishni belgilaydi.

B.T.Salimov, B.B.Salimov, G.R.Madraximovaning fikrlaricha, YaHMni ijobiy tomoni shundaki, uning yordamida nafaqat aniq bir hududning iqtisodiy rivojlanishini baholash mumkin, balki respublikadagi barcha hududlar rivojlanish dinamikasini oʻzaro taqqoslash bilan birga ularni mamlakat koʻratkichlari bilan ham taqqoslama tahlilni amalga oshirish mumkin [8]. Mazkur yondashuvlarga koʻra, YaHMni oshirish masalasi turli mintaqalarda tovar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishga ta'sirini belgilaydi.

Nazarov SH.X takidlashicha hududning asosiy koʻrsatkichlari, hududning raqobatdoshligini baholash va uni oshirish bilan boʻgʻliq hisoblanadi[9]. Olimjonov O.O fikriga koʻra hududlarning barqaror rivojlanishiga toʻsqinlik qilayotgan muammolar va nomutanosibliklardan biri sifatida YAHM koʻrilgan[10]. Gusarova O.M fikricha YAHMni oʻsishida investitsiya omilini muhimligi takidlangan[11].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ishida mintaqadayalpi hududiy mahsulot samaradorligini oshirishning yoʻllarini aniqlash maqsadida tahlil va sintez, shuningdek qiyosiy usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Andijon viloyatida bozor samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy salohiyatini koʻrsatuvchi koʻrsatkich – YaHM hajmi hisoblanadi. Ushbu koʻrsatkich hajmi 2022- yilda 54464.0 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 8.6%ga oʻsdi,

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan oʻsish surʼatlari va viloyatning iqtisodiy salohiyatini aniqlashda YaHM oʻsishida asosiy omil boʻlib xizmat qiladi.

**2018-2022 yillarda YAHM oʻsishida tarmoqlarning hissasi**
**(Jamiga nisbatan foizda %)[12]**

**1-jadval**

| | Qishloq,oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar |
|---|---|---|---|---|
| 2022 | 41.3 | 23.4 | 5.6 | 29.7 |
| 2021 | 43.3 | 20.1 | 5.8 | 30.8 |
| 2020 | 42.7 | 22.9 | 5.6 | 28.8 |
| 2019 | 43.2 | 23.6 | 4.8 | 28.4 |
| 2018 | 44.7 | 22.4 | 4.8 | 28.1 |

Jumladan, 2022-yilda qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi sohasi 103,5 foiz (umumiy ulushning 41,3 foizi), xizmatlar sohasi 106.2 foiz (umumiy ulushning 29.7 foizi) va sanoat sohasi 122.6 foiz (umumiy ulushning 23,4 foizi) ni tashkil qildi. Shu yilda viloyatning YaHM oʻsish surʼatiga asosiy taʼsir qiluvchi omillar boʻlib, sanoat (ishlab chiqarish indeksi 122.6 foiz) va qurilish (oʻsish surʼati 107,2 foiz) tarmoqlari hissasiga toʻgʻri keladi. Lekin, bu koʻrsatkichlar shu hududda yashovchi aholi ehtiyojini qondiradigan miqdorda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish yetarli darajada deb aytsak notoʻgʻri boʻladi. Bugungi kunda goʻsht, sut, kartoshka va boshqa mahsulotlarning narxlarini yuqoriligi, ularni yetishtirish aholi talabining oʻsishidan orqada qolayotganligidan dalolat beradi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16564,0 ming soʻmni tashkil etdi. Va 2021-yilga nisbatan 6,4% ga oʻsdi. Bu koʻrsatkich 2018-yilda 8889,4ming soʻmdan 2022-yilda 16564.0 ming soʻmga oshgan.

**2018-2022 yillarda YAHM oʻsishida tarmoqlarning hissasi**
**(Jamiga nisbatan foizda %)[12]**

**2-jadval**

| | YAHM | Qishloq,oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Mahsulotlarga sof soliqlar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2022 | 8.6 | 1.5 | 4.4 | 0.4 | 1.9 | 0.4 |
| 2021 | 4.8 | 1.8 | -0.3 | 0.5 | 2.6 | 0.2 |
| 2020 | 2.7 | 0.6 | 1.4 | 0.4 | 0.0 | 0.3 |
| 2019 | 5.8 | 1.2 | 3.2 | 0.0 | 1.2 | 0.2 |
| 2018 | 9.6 | 3.1 | 4.2 | 0.9 | 1.1 | 0.3 |

YaHM hajmi 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 8.6%ga oʻsdi va bu oʻsishni tarmoqlar boʻyicha tahlil qilganda sanoatning ulushi eng yuqori koʻrsatkichni 4,4% ni tashkil etdi. Keyingi oʻrinlarda xizmatlar sohasining ulushi (1.9%), qishloq,oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻi ulushi(1,5%) salmoqli oʻrinni egallagan.

YAHM barqaror oʻsishini taʼminlashda uning tarmoq tarkibi va tarkibiy qismlarining oʻzgarishini oʻrganish muhim oʻrin tutadi. 3- jadvalda YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibi keltirilgan.

**2018-2022 yillarda YAHM hajmi, mlrd. soʻm [12]**

**3-jadval**

| | YAHM | Qishloq,oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Mahsulotlarga sof soliqlar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2022 | 54 464.0 | 21 544.9 | 12 208.8 | 2 926.3 | 15 528.5 | 2 255.5 |
| 2021 | 43 332.5 | 18 232.0 | 8 450.2 | 2 454.5 | 12 983.9 | 1 211.9 |
| 2020 | 38 008.5 | 15 485.1 | 8 289.3 | 2 042.9 | 10 435.3 | 1 755.9 |
| 2019 | 33 581.3 | 14 006.6 | 7 662.6 | 1 563.7 | 9 191.9 | 1 156.5 |
| 2018 | 27 017.7 | 11 792.5 | 5 910.8 | 1 264.5 | 7 415.4 | 634.5 |

Jadvaldan koʻrish mumkinki, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan YAHM hajmi 11131,5mlrd.soʻmga oshib, 54464.0 mlrd.soʻmga yetdi. Bu oʻsishni tarmoqlar boʻyicha tahlil qilganda qishloq,oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining ulushi 3312.9 mlrd.soʻmni, sanoatning ulushi 3758,6 mlrd.soʻmni, qurilish sohasining ulushi 471,8 mlrd.soʻmni, xizmatlar sohasining ulushi 2544,6 mlrd.soʻmni va mahsulotlarga sof soliqlar ulushi esa 1043.6 mlrd.soʻmni tashkil etdi. Shuni taʼkidlash joizki, qurilish sohasining YAHMdagi ulushining pastligi YAHMni oʻsish surʼatini pasayishiga olib kelishi mumkin, chunki u YAHMni umumiy oʻsish darajasini taʼminlovchi lokomotiv hisoblanadi.

Xizmatlar sohasini qaraydigan boʻlsak, bu yerda ijobiy tendetsiyani kuzatish mumkin. Ushbu hududda xizmatlar sohasi oʻsgan. Xizmatlar sohasini rivojlantirishda Xorijiy tajribalardan foydalanib istiqbolli sohalarni aniqlab ularni rivojlantirishga eʼtiborni qaratish lozim deb oʻylaymiz. Bunday sohalar sifatida quyidagi bozor xizmati sohalarni ajratib koʻrsatish mumkin:

•transport sohasi;
•axborot texnologiyalari xizmati;
•sogʻliqni saqlash, fizik madaniyat;
•xalq taʼlimi (xususiy bogʻcha, xususiy maktablar va boshqa xizmat turlari);
•kommunal xoʻjaligi;
•savdo va ovqatlanish sohasi;
•sugʻurta;
•koʻchmas mulk boʻyicha operatsiyalar.

Bozor xizmatlari sohasi viloyat tuman markazlarida yaxshi rivojlanish imkoniyatiga ega. Bunga asosiy taʼsir etuvchi omillarga aholi soni, ularning daromadlari, korxona va tashkilotlar sonining koʻpligini kiritish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Ayni paytda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqarishni koʻpaytirish va iqtisodiyot resurslarini diversifikatsiyalashga katta eʼtibor qaratilmoqda. Zamonaviy tarmoqlarda sanoatni rivojlantirishga koʻmaklashish, xomashyoni keng koʻlamda qayta ishlash va sanoat ishlab chiqarishiga ilgʻor texnologiyalarni joriy etishga harakat qilinmoqda. Maqsad sanoat korxonalarining samarali ishlashiga koʻmaklashish va chuqur ishlab chiqarish amaliyotini joriy etishga koʻmaklashishdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda barcha hududlarda sanoat ishlab chiqarishni kengaytirish, uning YAHMdagi ulushini oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish asosiy yoʻnalishlaridan biri

hisoblanadi. Bu yerda, bozor talabi bilan taminlangan, import oʻrnini bosuvchi sanoat tovarlarini ishlab chiqarish va mahalliylashtirish asosida sanoat tovarlarini ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi istiqbolli kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tanlash asosida ularni qoʻllab-quvvatlash, ularga xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmani rivojlantirish, viloyatda kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularni rivojlantirish boʻyicha dasturlar ishlab chiqish sanoatni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari hisoblanadi. Viloyatga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy hamkorlar bilan birga qoʻshma korxonalarni barpo etish yangi raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga zamin yaratadi.

•viloyatning mamlakat YAIMdagi ulushni, YAHMning oʻsishi dinamikasi koʻrsatkichlari, viloyatning mamlakat iqtisodiyotida tutgan oʻrni, ularning iqtisodiy rivojlanishi toʻgʻrisida dastlabki xulosalar qilishga imkon yaratadi.

•viloyatda aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan YAHM koʻrsatkichi viloyat iqtisodiyotining rivojlanish dinamikasining faolligini aniqroq koʻrsatadi.

•aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan YAHM miqdorini mamlakat miqiyosida aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan YAIM miqdoriga nisbatan indeksi koʻrsatkichlari va ularning dinamikasi hududlarning mamlakat koʻrsatkichidan yuqori boʻlgan hududlarga, ya’ni aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan YAHMning oʻsishi respublikaga nisbatan yuqoriligini bildirsa, past boʻlishi depressiv hududlarni aniqlashga yordam beradi va bu ma’lumotlar hududlarda sanoatni rivojlantirish boʻyicha dasturlar ishlab chiqishda muxim boshlangʻich malumot boʻlib xizmat qiladi.

• YAHMning tarmoqlar tarkibi va ularning oʻzgarish koʻrsatkichlari taxlili natijalari sanoat ishlab chiqarish, qishloq, oʻrmonchilik va baliqchilik xoʻjaligini, qurilish va xizmat koʻrsatish sohalarining rivojlanishi qanday nisbatda ekanligi boʻyicha xulosa chiqarishga va ularni maqsadga muvofiq .nisbatda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishga asos boʻlib xizmat qiladi.

Andijon viloyati mintaqasida tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirish YaHMga bevosita bogʻliq boʻlib, uning oʻzgarishiga ta’sir qiladi. Ushbu oʻzgarish ijobiy ahamiyatga ega boʻlib, YaHM hajmini oshirishga xizmat qilishi lozim. Mintaqada tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishning yalpi hududiy mahsulotga ta’sirini aniqlashni yanada takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- mintaqada tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish hajmini yanada oshirish;
- mintaqaning eksport potensialini oshirishni ta’minlash;
- mintaqa iqtisodiyotida bozor monitoringini ishlash tizimini rivojlantirish;
- tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat koʻrsatuvchi korxonalarni klaster tarmogʻiga birlashishini ta’minlash;
- bozor samaradorligi va uni oshirishga qaratilgan konsepsiyalarni rivojlantirish va h.k.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni.
2. Andijon viloyatining statistik axborotnomasi. 2022-yil yanvar-dekabr. - Andijon, 2022. – 6-11 b. https://www.andstat.uz

3. Бочко В.С. Валовой региональный продукт: оценка развития территории. // Ж.: Теория хозяйствования. – с.3. https://ws.studylib.ru/doc/2702295/teoriya-hozyajstvovaniya
4. Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д.Бурменко, Н.Н.Даниленко, Т.А.Туренко; под ред. Т.Д.Бурменко. – М.:КНОРУС, 2007. – С. 33.
5. Гусарова О.М. Инвестиции как фактор регионального развития // Фундаментальные исследования.- 2015. -№ 2-10. –с.2194-2199
6. Гранберг А., Зайцева Ю. Производства и использование валового регионального продукта: межрегиональные сопоставления // Российский экономический журнал. 2002. № 10.
7. Snezana R., Zoran M., Zorana K., Ljubisa V.. Measuring of The Goods and Labor Markets Efficiency: Comparative Study of Western Balkan Countries. // Montenegrin Journal of Economics, Vol. 15, No. 2 (2019), 095-109. – 98 p.
8. Salimov B.T, Salimov B.B. Madraximova G.R. Hududlarning yalpi mahsuloti, dinamikasi, tarkibi, hududlararo taqqoslama tahlili va ustuvor vazifalar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018-yil 2/2018 (№ 00034). – 1 – 8 b. www.iqtisodiyot.uz
9. Vu Quang Viet Consultant to UNSD's project Statistical Capacity Development in China and other Developing Countries in Asia 23 June 2010. Gross regional products: concepts and country practices. – 6 p. https://unstats.un.org/unsd/economic_stat/China/Gross%20 Regional%20 Products.pdf
10. Nikolay S.Sadovina, Tatiana N.Kokotkina, Tatiana G.Barkalova, Evgeny I.Tsaregorodseva. Modeling of the Gross Regional Product on the Basis of Production Functions. // International journal of environmental & science education. 2016, VOL. 11, NO. 17, 10635-10650.
11. Клюня В.Л., Балюк С.С. Методологические аспекты определения валового регионального продукта и региональной эффективности. // Веснік БДУ. Сер. 3. 2012. №2. - 44 с.
12. Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурент способности регионов// Т:. IFMR, 2014г. 212с.
13. Xudoyberganov D.T. Mintaqada tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishning yalpi hududiy mahsulotga ta'siri. "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali №4, 2022-yil

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3SI4Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

*№ S/4 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).